



XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июль

VI-48-97-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

Sho'rchi tumanida 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida "Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar hamda hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish, 2022-yilda mehnat balansi va bandlik dasturini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi 2021-yil 14-dekabr kuni o'tkazilgan videosektor yig'ilishining 55-sonli bayoni ijrosi yuzasidan tuman hokimining birinchi o'rinbosari J.Norqulovning hisobotini tinglab, mazkur masala xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi tomonidan muhokama qilinganligini e'tiborga olib hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari J.Norqulovning tumanda 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining bajarilishi to'g'ridagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman sektor rahbarlari (B.Xudoyberganov, F.Xoliqov, D.Qurbonov, Sh.Zokirov) tuman hokimining o'rinbosarlari va tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlariga:

2022-yilga mo'ljallangan xizmatlar dasturining tegishli bandlari

ijrosini oyma-oy, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash bo‘yicha tizimli tadbirlarni amalga oshirish;

xizmatlar sohasida ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, har bir mahallaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, zaruriy xizmatlar turlarini kengaytirish, mahallalarda, ayniqsa qishloq joylarda agroxizmatlar, transport, moliyaviy, shuningdek, bank, turizm hamda savdo xizmatlari qamrovini kengaytirishda mas’ul tashkilot rahbarlarining mas’uliyatini oshirish;

norasmiy faoliyat yuritayotgan xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarni legallashtirish, o‘zini-o‘zi band qilgan fuqarolarni ko‘paytirish;

mahallalardagi tashabbuskor tadbirkorlarning g‘oyalari asosida aholining ehtiyoji mavjud xizmatlarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha loyihalarni kiritish, shuningdek, joylarda mazkur xizmatlarni ko‘rsatuvchi “xizmat ko‘rsatish majmualari”ni tashkil etilishi bo‘yicha zaruriy tadbirlarni amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (SH.Zokirov), tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (H.Baydullayeva) tuman hokimining yordamchilari bilan birgalikda mahallalarda norasmiy faoliyat ko‘rsatayotgan yashirin ish o‘rinlarini rasmiylashtirish hamda hududlarda fuqarolarning ruxsat etilgan faoliyat turlari bo‘yicha o‘zini o‘zi band qilish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (H.Baydullayeva), tuman Tadbirkorlikka ko‘maklashish markazi bilan birgalikda xizmatlar sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda aholini kasbga o‘qitish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil qilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi tuman filiali, tuman hokimligi qurilish bo‘limi har oyda hududdagi bo‘sh yer uchastkalarini tadbirkorlik subyektlariga ko‘chma hamda yengil konstruksiyali savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarini barpo etish uchun elektron-auksion savdolariga joylashtirib borilishini ta’minlasin.

6. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha har oyda xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida muhokama qilib borilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishi nazorat qilishni Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (SH.Bo'ranov) hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari J.Norqulov zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi



Xudoyberganov B.X